



BAXT SEMALI LEKSEMALARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Shukurullayeva Ozoda Furqat qizi

Qarshi davlat universiteti Lingvistika (o'zbek tili) yo'nalishi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada baxt semali leksemalar haqida fikr yuritish hamda lingvomadaniy xususiyatlari haqida talqin qilib berish, yoritish, tahlil qilish va dolzarb mavzu jihatida o'rganish yoritilgan.

Kalit so'zlar: leksema, sinonim, antonim, metaforik uslublar, frazeologik birliklar, semantik va qiyosiy tahlillar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются интерпретация, уточнение, анализ и тематическое исследование лексем, имеющих значение «счастье».

Ключевые слова: лексема, синоним, антоним, метафорические методы, фразеологические единицы, семантический и сравнительный анализ.

Annotation. This article discusses the interpretation, clarification, analysis, and topical study of lexemes with the meaning of happiness.

Key words: lexeme, synonym, antonym, metaphorical methods, phraseological units, semantic and comparative analysis.

KIRISH

Zamonaviy tilshunosligimizda insonning emotsional - ruhiy holatini ifodalovchi leksemalar ham alohida bir tadqiqot obyekti sifatida o'rganib borilmoqda. Shular jumlasidan, baxt leksemasi ham tadqiqot obyekti nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'sak, bunda insonning turmush tarzidagi voqea-hodisalar orqali talqin qilinadi. Birgina baxt leksemasi orqali insonning ichki ruhiy holatigina emas, uning jamiyatdagi o'rni, hayotdagi mamnuniyati ham ifodalanadi. Shu sababdan ham biz baxt leksemasini faqatgina til birligi emas balki, madaniy - ijtimoiy tushuncha deb ham qaralmog'imiz kerak. Rivojlanib kelayotgan tilshunoslikda birgina baxt leksemasini o'rganish davomida uning ma'nosini ham ifodalab keluvchi birliklar mavjudligi, ammo ularning har birlarining o'zini qo'llash doiralari, usullari borligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, baxt leksemamizning saodat, iqbol, tole kabi birqancha birliklar bilan ham taqozo etilishi hamda bu birliklar turli uslublarga xoslangan holda o'rganiladi. Baxt leksemasini sinonimlik, antonimlik, metaforik, fraziologik birliklar orqali va maqollar yordamida yoritib o'tishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, baxt leksemasining bir nechta usullar yordamida qo'llanilish imkoniyatlari keng ekanligini anglatib turibdi.

Sinonimlik: *baxt-saodat, tole, iqbol.*

Antonimlik: *baxtsiz, saodatsiz, tolesiz va h.k.*

Yuqorida keltirilgan birliklarimizning har birining qo'llanish doiralari mavjud. Masalan,

Baxt - barcha nutq qatlamlarida,

Saodat - badiiy va rasmiy uslubda,



Iqbol - badiiy uslubda,
Tole - forsiy uslubda.

Quyida keltirilgan leksemalarimiz bir biriga yaqin ma'noga ega bo'lsada, ularning semantik va lingvomadaniy jihatlari turlicha ifodalanadi. Masalan, Bobur Mirzoning ruboiylaridan biriga yuzlanadigan bo'lsak,

Tole yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.

Misrada tole leksemasi baxt semasiga qaraganda omad ma'nosiga nisbatan kengroq ko'lamda qo'llangan bo'lib, omad yo'qligi, omadsizlik ortidagi baxtsizlik ifodalangan.

Endilikda baxt leksemasi metaforik usul orqali ifodalanishi ham ko'rishimiz mumkin. Jumladan, baxt nuri yog'ildi, baxt yo'lga tushmoq, baxti kulmoq, baxt qushi, baxt yo'li to'silib qoldi va h.k. Bundan ko'rinib turibdiki, birgina baxt semasini nurga, yo'lga, qushga qiyoslab metaforik usulga tayangan holda o'rganilgan. Baxt semasi lingvokulturalogiya sohasi bilan ham chambarchas bog'liqlik joylari mavjuddir. Bunda til va madaniyat bir - biri bilan bog'liq holda talqin qilinadi. O'zbek xalq maqollarida baxt leksemasi ortida sabr, mehnat, tinchlik fazilatlari mujassam bo'lgan. Masalan,

Baxt mehnat bilan topiladi,
Baxt boylikda emas, qanoatdadir,
Izlanganga tole yor.

Maqollarning har birida baxt semasining o'zga bir ma'noga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Maqolda baxt leksemasi mehnat, qanoat, sabr kabi leksimlar orqali ifodalangan bo'lib, inson hayotidagi barcha mashaqqatlari ortida baxt kamoloti yotganligini anglamog'imiz darkor. Bu borada biz olimlar va yozuvchilar fikriga tayanadigan bo'lsak, unda ham fikrlar izchilligi bir me'yorda emasligini ko'rishimiz mumkin.

Xudo insonni bir umr baxt izlash azobi bilan jazolagan. (Asqar Muhtor)

Baxt ko'p mehnat qiladiganga nasib bo'ladi. (Leonardo da Vinchi)

Kishi o'zganing baxtidan baxt topsa, u haqiqiy yashagan inson hisoblanadi. (Gyote)

Kimki baxt - iqboli, solih kishilarning etagiga yopishsa, u albatta murod-u maqsadiga erishib, xayru baraka topar. (Abulqosim Zamaxshariy)

Harakatsizlikda baxt yo'q. (Fedor Dostoyevskiy)

Yuqorida keltirilgan ibratli fikrlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, baxt leksemasi birgina faoliyatdagina emas, insonning hayotdagi sa'y - harakatlari natijasida talqin qilinadi. O'zbek milliy mentalitetida baxt leksemasi birgina tushuncha bilangina emas, oila, jamiyat va odob - axloq me'yorlari asosida vujudga kelgan. Yuqorida keltirib o'tilgan misollarimiz orasida Italian va nemis olimlarining ham bu haqida bildirgan fikrlarida ham baxt leksemasi bir nuqta



doirasida emas, bir nechta nuqtalar birlashuvidan tashkil topgan, hamda baxt leksemi ostida tinchlik, insoniylik va mehnat bilan bog'langan ravishda yoritib o'tishgan.

Tilshunosligimizdagi frazeologik birliklar bilan ham baxt leksemasini kinoyali tarzda ifodalashini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, baxti kulmoq, baxt qushi boshiga uchib kelmoq, baxt eshigini ochmoq va h.k. Ko'rib o'tilgan iboralarimizning tub mohiyatida insonning hayotiy kechinmalari emotsiya orqali ifodalab berilgan. Shuni anglamog'imiz joizki, baxt leksemi inson bilan bog'langan holda o'rganiladi. Lingvokulturalogik jihatidan olib qaraydiigan bo'sak, baxt leksemi diniy va an'anaviy qarashlar billan ham ifodalash mumkin. Islomiy qarashlarga ko'ra, inson baxti Alloh tomonidan berilgan bo'lsada, mehnat va sabr orqali unga erishiladi, hamda qismat, taqdir, nasiba leksemalari billan ifodalanadi. Demak-ki, bu leksemalar ortidan baxt leksemi yaraladi.

Tilshunosligimizda rivojlangan soha sifatida kirib kelgan assotsiativ maydon nazaryasi sifatida ham ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu nazariya haqida D. Lutfullayeva shunday ta'kidlaydi, "Assotsiativ maydon - struktur jihatdan liksikografik xususiyatga ega bo'lgan, mohiyatan inson ongida aks etgan muayyan voqelik, semantik va grammatik munosabatidagi birliklar yig'indisidir". Maydon tuzilishida asosan stimul so'z semantik jihatdan bog'langan holda yoritib berilgan bo'lib, grammatik usulda esa bir shaklda ba'zan har xil shaklda kelishi mumkin. Masalan, baxt stimul so'ziga saodat, tole, iqbol, omad kabi leksemalarni ot so'z turkumi deb olsak; baxtsiz, bebaxt, saodatsiz, tolesiz esa sifat so'z turkumiga oid leksemalar; baxti uchun harakat qilmoq, o'zini baxtli his qilmoq, baxtiga ziyon yetkazmoq kabi leksemalar fe'l so'z turkumiga oid bo'lib, maydon tuzilishi jihatdan baxt stimul so'z hisoblansada, uning atrofidagi birliklar birlashgan holda baxt semali maydon tuzilishini tashkil qilgan.

Baxt semali leksemalarni struktur jihatdan ham guruhlarga ajratishimiz mumkin: a) sodda so'zlar: baxt, omad, b) murakkab so'zlar: baxt-saodat, baxtiyor kabilar. Endilikda sodda so'zlarni tub (baxt, omad, taqdir, nasiba) va soda yasama (omadli, sadatli, baxtli) deb oladigan bo'lsak, murakkab so'zlarni qo'shma (baxt-saodat, baxtigul, baxtiyor, baxt qushi) kabi so'zlarga ajratishimiz mumkin. Baxt semali leksemalarning ko'pchiligini ot, sifat va fe'l so'z turkumiga mansub: ot-baxt, omad (unga yaqinroq ma'noda); sifat - baxtli, baxtliroq, baxtsiz, bebaxt; fe'l - baxtli bo'lmoq, baxtiyor yurmoq, baxtdan kuylamoq va h.k.

Baxt semasini denotativ va konnotativ qatlamlar asosida o'rganamiz. Denotativ (asosiy ya'ni lug'aviy ma'no) bu insonning omad muvofaqqiyatli holati, hayotdan mamnunlik tuyg'usi bo'lib, ijoby ruhiy holatini ifodaluvchi tushuncha. Masalan,

Mehnat qilgan inson baxtga erishadi,
Inson baxt izlab yashaydi.



Konnotativ (qo'shimcha hissiy- ekspressiv ma'no)ni mujassam etadi. Buni biz pozitiv emotsiyada shodlik, quvonch, oilaviy munosabat bilan bog'lasak farzand ota - ona baxti; taqdir bilan "nasiba", "qismat" kabilar. Leksemaning o'zbek, ingliz, rus tillarida manoviy jihatdan qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak, bunda o'zbek tilida baxt, ingliz tilida happiness, rus tilida счастье kabi leksemalar ko'p ma'noli bo'lib, lingvokulturalogik jihatidan turli xarakterlar hamda voqea-hodisalar asosida inson ongida tasavvurni paydo qiladi.

O'zbek tilida baxt leksemasini semantik jihatdan qiyosiy tahlil qiladigan bo'lsak,

Ichki ruhiy holatdan kelib chiqilgan holda (mamnunlik, xursandchilik).

Oilaviy va ijtimoiy farovonlikni ham ifodalab keladi.

Taqdir va omad bilan ham bog'liq tushuncha.

Ingliz tilida happiness so'zi ham turli ma'nolarda mujassam bo'ladi.

Psixologik emotsional holatlar orqali.

Subyektiv jihatdan insonning ichki qoniqishi hisoblanadi.

Rus tilida счастье so'ziga ham to'xtaladigan bo'lsak, hayotdan mamnunlik emosional quvonch holati.

Quyda keltirilgan leksemalarimizni struktur tomondan qaraydigan bo'lsak,

O'zbekcha "baxt" - sodda ot

Ingliz tilida "happiness" - happy - sifat + nees (ot yasovchi qo'shimcha).

Ruscha "счастье" - ot shaklida qo'llanilgan.

Endilikda leksemalarimizning konnotativ (madaniy) jihatdan bir biridan farqlaydigan bo'lsak,

O'zbek tilida "baxt" ko'p holatlarda oila, farzand taqdir bilan bog'liq hisoblanadi.

Ingliz tilida "happiness" bunda ko'proq shaxsiy erkinlik va individual qoniqish ya'ni (shaxsiy ehtiyojlar, maqsadlar, istaklar) bilan bog'liq hisoblanadi.

Rus tilida "счастье" - ichki quvonch va taqdirga nisbatan ham qo'llaniladi.

Baxt semali leksemamizning metaforik usuli orqali ifodalaydigan bo'lsak, bunda bir predmet boshqa predmet yoki hodisaga o'xshashlik asosida ma'no ko'chishidir hamda obrazlilik va ko'chma ma'no orqali yoritib beriladi. Baxt semali leksemasini metafora orqali ko'rib chiqadigan bo'lsak, ko'pincha boylik, nur, yorug'lik, balandlik kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Ba'zi hollarda tabiat hodisalari bilan ham qiyoslanadi. Endilikda bularni ketma ketlikda ifodalaydigan bo'lsak,

Kasallik metaforasi

Qayg'u qalbini kemirdi

Dard yuragini zaharladi

Umidsizlik dardi uni qiynadi

Qorong'ulik metaforasi

Hayotini baxtsizlik soyasi qopladi



Qalbini zulmat qopladi
Dard og'ir toshdek yuragini bosdi
Boylik metaforasi
Baxt kalitini topdi
Baxt xazinasini
Baxti tillodan bo'lsin

Bu hodisa tilshunoslikda konseptual metafora sifatida ham izohlanadi. Quyida keltirilgan misollarning aksariyat hollarda salbiy holatini ifodalab bersa, yana bir nechtasi esa ijobiy - ruhiy holatini ifodalab keladi. Baxt va baxtsizlik metaforalari turli tillarda o'xshash semantik jihatlari orqali quriladi. Endilikda biz bu holatni o'zbek, ingliz va rus tillarida ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida – *baxt nuri*
Ingliz tilida – *happiness light*
Rus tilida – *свет счастья*
O'zbek tilida - *qayg'u zulmati*
Ingliz tilida – *darkness of sorrow*
Rus tilida – *тьма печали*
O'zbek tilida – *baxt gullari*
Ingliz tilida – *flowers of happiness*
Rus tilida – *свет счастья*

Yuqorida keltirilgan metafora orqali yoritilgan leksemalarimizning turli tillar miqyosida qiyoslanganini ko'rib o'tdik.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, baxt, saodat, iqbol, tole yaqin ma'noga ega bo'lsa-da, ularning semantik, grammatik, metaforik, lingvokultralogik va qiyosiy tahlil jihatlari turlicha ma'no mujassamligini kuzatishlar davomida guvohi bo'ldik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SH. Usmonova "Lingvokulturalogiya", Toshkent - 2019.
2. B. Xudoyqulov, "Frazologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari" (Italian tilidagi iboralar misolida), 2021.
3. S.S.Karimova. Konseptlarning lingvomadaniy va semantik tahlili (Baxt konseptining misolida) \ Xorijiy filologiya. Til.Adabiyot.Ta'lim. - Samarqand, 2021.